

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

BIOLOGIYA

D.R.Kapizova, I.I.Zokirov

Mevali bog'lar koksidlari entomofaglarining sistematik tahlili
(Sharqiy Farg'ona hududi misolida) 101

R.N.Mo'minova

Qoradaryo havzasi yuksak suv o'simliklarining bioekologik xususiyatlari 106

С.Д.Дадаев, Д.А.Палуаниязова

О фаунистических и экологических особенностях гельминтов мелкого
рогатого скота Каракалпакстана 110

S.B.Orifov, F.R.Xolboyev

Hind chumchug'i- *Passer indicus* ning O'zbekistonda ko'payish xususiyatlari va ahamiyati 116

N.K.Devonova, G.S.Mirzayeva, B.E.Soyibnazarov, Sh.E.Tursunboyeva

Surxon davlat qo'riqxonasining tangachaqanotli hasharotlari (insecta: lepidoptera) 121

M.A.Axmadjonova

Farg'ona vodiysida tarqalgan *Sitona* Germar, 1817 avlodi (Coleoptera: Curculionidae)ga
mansub turlarning bioekologik xususiyatlari 127

V.A.Karimov, M.Nazarov

Jadal texnologiyada arpa yetishtirish 133

GEOGRAFIYA

Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduvaliyev

Aholi zichligini aniqlashda yer sig'imi uslubidan foydalanish 142

I.O.Sulaymonov

O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning ayrim jihatlari 146

Q.S.Yarashev, A.I.Xayitbayev

Xorazm viloyati voha landshaftlarining shakllanishi va rivojlanishi 150

I.Aripov, R.Mariya

Sirdaryo viloyatida sho'rlangan hududlarni melioratsiyalashtirish samaradorligining
iqtisodiy baholanishi 154

A.U.Usmonov, A.K.Ergashev

Shahar aholi manzilgohlari shakllanishi va rivojlanishining nazariy asoslari
(Vobkent tumani misolida) 161

O.N.Xakimov

Kollektor geotizimlaridagi relyefning havzaviy strukturasi 166

O.N.Xakimov

Yer yuzasini kartografik ideallashtirish va uning relyef strukturasini tadqiq qilishdagi o'rni 178

ILMIY AXBOROT

Y.E.Altiboyev

Tarixiy manbalarda keltirilgan Qashqadaryo daryosi to'g'risidagi ma'lumotlar tahlili 190

A.A.Akramov

Oliy ta'lim tizimida ekologik o'quvni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minotini
takomillashtirish modeli 195

M.J.Urinov

Kambag'allikning sivilizatsion ko'chish dinamikasi va uning o'ziga xos xususiyatlariga
falsafiy tavsif 199

B.F.Abdishukurov

Markaziy Osiyodagi hududiy-chejaraviy muammolar
(1924-yildan keyingi voqealar xususida) 203

A.M.To'rayev

Talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish asosida kasbiy takomillashtirish 207

Sh.M.Kadirov

Talabalarda tarixiy vogelikka nisbatan analogik xulosa chiqarish ko'nikmalarini
rivojlantirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish 210



УО'К: 378.014.15

**OLIY TA'LIM TIZIMIDA EKOLOGIK O'QUVNI MODERNIZATSIYALASHGAN DIDAKTIK
TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH MODELI**

**МОДЕЛЬ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МОДЕРНИЗИРОВАННОГО ДИДАКТИЧЕСКОГО
ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО
ОБРАЗОВАНИЯ**

**A MODEL FOR IMPROVING THE DIDACTIC PROVISION OF MODERNIZING ECOLOGICAL
EDUCATION IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM**

Akramov Adhamjon Abarjon o'g'li 

Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada oliv ta'lism tizimida ekologik o'quvni modernizatsiyalashning didaktik ta'minotini takomillashtirishning nazariy asoslar, ekologik o'quvni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minotini takomillashtirish tizimi va samaradorligi o'rganilan. Shuningdek, oliv ta'lism tizimida ekologik o'quvni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minotini takomillashtirish modeli tahlil qilingan.

Аннотация

В статье рассматриваются теоретические основы совершенствования дидактического обеспечения модернизации экологического образования в системе высшего образования, система и эффективность совершенствования модернизированного дидактического обеспечения экологического образования. Также были проанализированы модель совершенствования модернизированного дидактического обеспечения экологического образования в системе высшего образования.

Abstract

The article examines the theoretical basis of improving the didactic support of the modernization of environmental education in the higher education system, the system and effectiveness of the improvement of the modernized didactic support of environmental education. Also, model of improvement of modernized didactic provision of environmental education in the higher education system were analyzed.

Kalit so'zlar: oliv ta'lism, ekologiya, ekologik ta'lism, ekologik o'quv, didaktik, modernizatsiya, ekoteologik, pedagogik, ekoetik, global, tizimli tahlil, pedagogik eksperiment, monitoring, adaptatsiya, kreativ.

Ключевые слова: высшее образование, экология, экологическое образование, экологическое образование, дидактический, модернизация, экологеологический, педагогический, экоэтический, глобальный, системный анализ, педагогический эксперимент, мониторинг, адаптация, креативный.

Key words: higher education, ecology, ecological education, ecological education, didactic, modernization, ecotheological, pedagogical, ecoethical, global, systematic analysis, pedagogical experiment, monitoring, adaptation, creative.

KIRISH

Bugungi kunda integratsion ta'limg tashkil etish va shu asosda talabalarda turli bilim va ko'nikmalarni shakllantirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Ekologik o'quvni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minotini takomillashtirish integrativ ta'lism asosida yuzaga keladi. Chunki ekologik bilim va ko'nikmalarni etika fani asosida shakllantirish va axloqiy tamoyilolar asosida mustahkamlash integratsion ta'lism asosida olib boriladi. Talabalarda ekoetik kompetetlikni shakllantirish muammosini tadqiq etishdan avval kompetetlik va kompetentli yondashuvning mazmun-mohiyatini ko'rib chiqish, ularning tahlilini olib borish ekologik etikaga doir kompetentlikni shakllantirishning ijtimoiy ahamiyatini tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHЛИLИ VA METODLAR

Ekologik ta'limg didaktik ta'minotini modernizatsiyalash masalalari Amerika va G'arb mamlakatlari faylasuflari I.Kant, G.Gegel, I.G.Fixte, F.Shelling kabi klassik davr mutafakkirlarning

ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan. Shuningdek, I.L.Vershok, N.A.Sheyafetdinova, Y.A.Shishkina, YE.I.Balakina, E.Xoshimova, E.Karimova, Y.Shodimetov, S.Mamashokirov, E.Usmonov, H.Salomova, D.Rasilov, A.K.Berdimuratova, S.Sanginov, Sh.P.Maxmudov, A.Axmedov, A.Qo'ldoshev tadqiqotlarida tahlil qilingan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Talabalarda ekoetik kompetentlikni shakllantirish muammosini tadqiq etishdan avval kompetetlik va kompetentli yondashuvning mazmun-mohiyatini ko'rib chiqish, ularning tahlilini olib borish ekologik etikaga doir kompetentlikni shakllantirishning ijtimoiy ahamiyatini tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mamlakatimizda turli sohalarda qanchadan-qancha o'z kasbining ustalari – kompetentli yoki mahoratlisi insonlar faoliyat ko'sratmoqdalar. Oliy o'quv yurtlarida ko'plab iqtidorli yoshlar tahsil olmoqdalar, kasb-hunarni egallayotgan yoshlar ham talaygina. ularning hammasi o'qish-o'rganish jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni nima uchun ta'lif olayotganliklarini anglagan holda o'z vaqtida bosqichma-bosqich puxta egallab borishmoqda. Shu kungacha dunyo tajribasida yig'ilgan barcha tajribalarni umumlashtirgan tarzda ta'lif – kishini hayotga, jumladan mehnatga tayyorlash uchun unga tizimlashgan, muddatli, rasmiy, tegishli, bilim, ko'nikma, malaka – kompetensiya berish vositasi, deyish mumkin.

Yuqorida keltirilgan mulohazalardan kelib chiqib, ta'lif jarayonida talabalarda "kompetensiyanı shakllantirish" emas, balki "kompetensiaviy yondashuvga asoslangan ta'lif" deyish har jihatdan o'rindir. Unga quyidagicha ta'rif berish mumkin: Kompetensiaviy yondashuvga asoslangan ta'lif –kishiga tizimlashgan, muddatli, rasmiy, tegishli, bilim, ko'nikma, malakalarni berish orqali uni muayyan mahorat, qobiliyat yoki layoqat darjasiga ega qilish orqali hayotga, jumladan mehnatga (kasbga) tayyorlash vositasi. Shuning uchun ham "Barqaror rivojlanish uchun ta'lif "aynan ta'lifni tizimlashgan bosqichlari doirasida kishini muayyan bir kompetentlik darajasida tayyorlash deyish mumkin. Rivojlangan mamlakatlarda kollej, bakalavr, magistr, fan doktorini diplomi yoki uning kasbiy klassifikatoragi shifriga qarab emas, balki kompetentlik darjasiga qarab ishga olinadi. Buning uchun har bir ish beruvchi idora, korxona, tashkilot yoki muassasada ishga oluvchining kompetentlik darjasini egallashi mumkin bo'lgan lavozimiga qarab differensiallashgan tarzda kompyuterdag'i testlar, og'zaki muloqatlar va prezентatsiyaviy baholash mezonlari ishlab chiqilgan. Baholash mezonlari ish beruvchining kasbiy yo'nalishiga qarab turlicha bo'ladi va uni qo'llash mexanizmi o'ziga xos ko'rinishga ega. Yuqorida qayd etilgan mulohazalarni umumlashtirgan tarzda kompetensiya –shaxsnинг ko'zlangan natijalarga erishish uchun bilim, ko'nikma va malakalarni mustaqil ravishda amalda qo'llay olish darajasi, deyish mumkin.

Ekologik ta'lif nazariyasida zamонави metodologik asosni to'g'ri tanlash, uning talablaridan kelib chiqqan tarzda metodlarni ta'lif turlariga qarab joylashtirish va kasb berishda qo'llash, olinadigan natijalarning haqqoniyligi, asoslanganligi va amaliy ahamiyatliligin bildiradi.

Metod (yun. metodos — bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'lifot) — voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l-yo'riklar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni ajratish va asoslash usuli. Metod nazariya emas, nazariy tadqiqotlarni olib borish, asoslash, baholash va xulosalashda ishlatalidigan usul. Ushbu tadqiqot usullarsiz biron bir ilmiy-amaliy ishlarni olib borish imkoniyati yo'q. Biz xalqaro lug'atda qo'llanilgan ta'rifga to'liq qo'shilamiz, ya'ni metod (grechkada methodos – tadqiqot yo'li, usuli) – mauyyan bir maqsadga erishish yo'li yoki usuli. Garchand milliy adabiyotlarida metodni turlicha nomlar— usul, uslubiyot, yo'libilan atalsa-da, lekin uni xalqaro miqyosda e'tirof etiladigan «metod» atamasini ilmiy izlanishlarda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Metodlar barcha fanlarda bor, ammo ekologik ta'lifda o'zining qonuniyatları, maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda ularni tanlab olish va tizimlashtirish talab etiladi.

Ekologik tadqiqot metodlari— ekotizimlarda kechayotgan jarayon, hodisa, voqeа, holat va narsalarni o'rganish, aniqlash va amalga joriy qilish usuli. Ekologik tadqiqotlar deyarli barcha fan tarmoqlarida uchragani uchun ham u komplekslilik xususiyatiga ega va unda deyarli barcha fanlarga xos bo'lgan, jumladan pedagogik tadqiqot metodlari qo'llaniladi. Fan metodlarining asosiy mazmuniniamaliyotda sinalgan ilmiy nazariyalartashkil etadi va mohiyati jihatidan metodlar funksiyasigaega. Metod o'z navbatida, yangi ilmiy nazariyalar va qonuniyatlarning ochilishigavosita bo'lib xizmat qiladi. Biror yangilikni kashf qilishda qo'llagan ilmiy metod ko'proq ahamiyatgaegadir,

ILMIY AXBOROT

chunki boshqa kashfiyotchilar hamshu olim qo'llagan ilmiy metodga tayanibko'plab kashfiyotlarni ochishi mumkin.

O'zbek tilida chop etilgan nufuzli «Pedagogik ensiklopediyasi»da metodika terminiga ikkita tushuncha berilagan: 1) biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish tushunchalari, usullarining yig'indisidir; 2) o'qitish usullari haqidagi ta'limot . Lekin: birinchidan,nima uchun pedagogik ensiklopediyada, umumiy milliy ensiklopediyadagi kabi, metodikaning birinchi varianti, ya'ni kishilik faoliyatining barcha jahbalarini qamrab oluvchi umume'tirof tushunchasi berilgan; ikkinchidan, metodika ishni bajarish, amalga oshirish yoki ado etish tushunchasini bermaydi balki ularni bajarish usullarini qo'llash jarayoni yoki texnologiyasini ko'rsatib beradi; uchinchidan, usullar yig'indisi, to'g'rirog'i tizimlash vazifasini metodika emas, metodologiya bajaradi; to'rtinchidan, biz yuqorida aytib o'tganimizdek, pedagogikada o'qitish usullari (metodlari) haqidagi ta'limot — ta'lif metodologiyasidir.

Pedagogik metodika — ilmiy tadqiqotni olib borish prinsiplari, metodlari, usullari, texnikasi, tartibi va tashkil etish majmuasi, ya'ni o'quv-tarbiya jarayonini yechish uchun pedagogik xodisalarni tadqiq qilish. Bizning fikrimizcha, pedagogik metodologiyadan farqli ravishda metodlar haqidagi ta'limlot emas, balki pedagogik metodika — ta'lif va tarbiyada qo'llaniladigan pedagogik metodlarni muayyan pedagogik qonun va qonuniyatlardan kelib chiqqan tarzda rejalashtirish, rasmiylashtirish, amalga joriy qilish, nazoratlash, monitoringini olib borish, baholash va xulosalash yo'li, to'g'rirog'i mexanizmi.

Mexanizm – biron-bir harakatni bajarish uchun zarur bo'lgan va uzviy bog'langan qismlar tizimi. Pedagogik ta'lif metodikasi — oddiydan murakkabga, yaqindan uzoqqa tomon borish, talabalarning yoshi, jimoniy va psixologik holatini inobatga olish, ta'lifning umumiylik va kabbiylik kabi prinqiplariga amal qilgan tarzda qismlarga ajratiladi.

Talabalarda ekologik axloqiy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishda ekoetika ta'lif metodologiyasidagi quyidagi talablarni ajratish mumkin: ekologik ta'limga oid tatqiqotlarni muayyan ekotizimlar doirasida olib borish; metodlarni tanlashda amaldagi huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ekologik, axloqiy va texnologik sharoitlardan kelib chiqish; tabiiy, ijtimoiy-tabiiy va tabiiy-ijtimoiy voqeа, jarayon va hodisalarni tadqiq qilish; ekologik ta'lif tadqiqot metodlarini tanlash; ilmiy bilish metodlarini real sharoitdan kelib chiqqan holda tizimlashtirish. Demak,ekologik ta'lif metodologiyasida ijtimoiy sharoitni inobatga olishda tadqiqotlarni ijtimoiylashuviga, ya'ni inson tomonidan jamiyatda yashash imkonini beruvchi bilimlar, normalar va qadriyatlar tizimining o'zlashtirilishini inobatga olish kerak .

Ekologik axloqiy tarbiya insonning ma'nnaviy va ruhiy dunyosini boyitishga va shakllantirishga imkon beruvchi yo'nalishlardan biridir. Tabiat, o'simliklar, hayvonlar va odamga bo'lgan mehr-muhabbat talabalar qalbida shaxsga, insonga xos bo'lgan ezzulik va mehribonlik tuyg'ularini yanada rivojlantiradi. Yer, suv, havo, o'simlik va hayvonlarni, hayot manbalarini va yashash vositalarini ehtiyyotkorona saqlash, e'zozlash ma'nnaviyat mezoni hisoblanadi. Tabiat qonunlarini yaxshi bilish, amalda tatbiq etish, yoshlarni ekologik madaniyat ruhida tarbiyalash atrof-muhit tozaligini, sog'liq-salomatlilikni mustahkamligini, turmush farovonligini ta'minlaydi.

Oliy ta'lif bosqichlarida talaba va yoshlarning ekologik tarbiyasida asosiy e'tibor ekotizimlar va atrof-muhit muhofazasi, tabiatdan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish, atrof-muhitni yaxshilashga qaratilgan texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq bo'lgan global malakalariga katta ahamiyat beriladi. Shuningdek, barqaror rivojlanish, global va hududiy-ekologik muammolarni bilish bilan bog'liq bo'lgan masalalarga e'tibor qaratiladi. Shu bilan birga ekologik madaniyatning asosiy manbalaridan biri hisoblangan o'zbek xalqining ma'nnaviy qadriyatлari, tabiatni, atrof-muhitni va madaniy meroslarini asrab-avaylash bilan bog'liq qadriyatлarni himoya qilish, saqlash, ularni ko'paytirish va kelajak avlodlarga yetkazish bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy mas'uliyat, vijdonlilik, burchga sadoqat, qat'iyatlilik, tashabbuskorlik kabi fazilatlar shakllanadi va ular rivojlantiriladi.

XULOSA

Xulosa qilganda, ekologik o'quvni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minotini takomillashtirishning integrativ metodikasi ekologik axloqiy bilim, ko'nikma va malakaga asoslangan ta'lif modeli va texnologiyasini o'z ichiga oladi. Bunda ekologik bilimlarnigina emas, ekologik axloqiy dunyoqarashni ham shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдуназаров Л.М., Тохиров Р.Т. Экологик таълимда дастурий воситаларни яратиш йўллари. "Узлуксиз таълим тизимида математика ва табиий фанларни ўқитишини такомиллаштириш масалалари, ташкилий-педагогик ва услубий омиллари" Республика илмий-амалий конференция, Кўкон 2018 йил, -Б. 156-158.
2. Лемешев М.Я. Пока не поздно. Размышления экономиста-эколога. - Москва.: Молодая гвардия, 1991. - С. 5.
3. Нигматов А., Абдуназаров Л., Мухамедов Ш. Касбий экологик таълим ва тарбия.-Т.: "Иқтисодиёт-молия", 2016. 6-б.
4. Огудин В.Л. Экологическая функция религии. journal.iea.ras.ru/archive/2000s/2001/no1/2001_1_023_Ogudin.pdf
5. Человек, общество и окружающая среда. Географические аспекты использования естественных ресурсов и сохранения окружающей среды.- М.: «Мысль», 1973. -С.10-11.
6. Экологическое образование в России: теоретические аспекты: Сб. тр. к 25-летию Научного совета по экологическому образованию Президиума Рос. акад. образования. – Москва.: Педагогика, 1997. – 160 с.
7. Ясвин В.А. Психолого-педагогическая коррекция субъективного отношения к природе в процессе экологического образования // Вопросы психологии. 1998. №4. -С. 314